



SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

ЗДОРОВЬЕ НАРОДА — БОГАТСТВО СТРАНЫ

PEDIATR

№ 10 (906) 15-iyun, Dushanba 2020-yil	TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТА	Gazeta 1974-yil martdan chiqqa boshlagan
---	---	--

XALQ DARDINING KUYCHISI

B. T. DAMINOV,
ToshPTI rektori,
Xalq deputatlari Toshkent
shahar kengashi deputati

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoevning kitobxonlik madaniyatini oshirishga bag'ishlangan farmoyishlari mamlakatimizda bu yo'ldagi qadamlarning asosiylaridan biri edi. "Yoshlarimizning kiritib o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularning kitob bilan do'st bo'lishiga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim," – degan yurtboshimizning so'zlari ushbu saviyani oshirishga qaratilgan izchil tizimli ishlarida o'z davomini topdi. Chunonchi, o'tgan oyda yana Muhtaram Prezidentimiz tashabbuslari bilan Alisher Navoiy nomli Milliy bog'da Adiblar xiyoboni barpo etildi.

Ushbu xushmanzara bog'da mumtoz adabiyotimizning ulkan namoyondalari siymolarini ko'rish, ular ijodini o'rganish, yoshlarni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashda, olijanob xislatlarni singdirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Siymolari aks etgan adib va shoirlar muhtasham bog'da bizga goh baxt va shodlik kuychisi Hamid Olimjondek maftunkor yurtimizni betakror tarannum etadi, goho Cho'lpon va Avloniylar taqdirleri, jadidlarning orzulari bugungi kunda ro'yob bo'lganini namoyon etadi.

Adib va shoirlarimiz nomlarini abadiylashtirish ularning hayoti va faoliyati, ijodi bilan tanishish yoshlarimizda tarix saboqlarini bugungi kun shukhi bilan qiyoslash, bu haqiqatni badiiy talqin orqali his qilib vatanimiz ravnaqi uchun o'zlari nechog'li mas'ul ekanligini anglashlari muhim.

Toshkent pediatriya tibbiyot institutimizning jamoasi qoraqalpoq xalq shoiri (Berdimurod Qarg'aboy o'g'li) Berdaq hayoti va ijodini o'rganmoqda. Qoraqalpoq adabiyotining asoschisi Berdaqning hayoti va ijodining asosiy mazmuni o'z ona xalqi bilan hamisha bir jonu bir tan bo'lib yashash, uning og'irini yengil qilish bo'lgan. Ushbu maqsad va g'oyalari uning siymosi va ijodini asrlarga muhrlagan va abadiy qilgan. Bu ijod har bir davr uchun ham zamonaviy, ham dolzarbdir. Demak uning ijodi bugungi kunimiz mustaqillik g'oyasi bilan ham hamohangdir.


Xalqparvar shoir Berdaq hayoti va ijodini o'rganish institutimiz yoshlari ongiga xalqparvarlik va uning dardi bilan yashash hissini payvand qilishi shubhasiz. Ushbu yo'nalishda oliygo'himiz jamoasi tomonidan amalga oshiriladigan ishlar belgilab olindi. Bu ishlar orasida avvalambor Berdaq hayoti va ijodi haqida elektron taqdimotlarini har bir guruh talabalariga namoyish qilish, uning ijodi va faoliyati aks etgan mavzuli xona tashkil etish. Berdaq ijodiga – she'riyatiga bag'ishlangan ifodali o'qilgan she'rlar tanlovini o'tkazish, "O'zbek tili va adabiyoti" fani dasturiga Berdimurod Qarg'aboy o'g'li hayoti va ijodiga bag'ishlangan mavzuni kiritish, Adiblar xiyobonida adabiyot darslari, mushoiralar o'tkazish ko'zda tutilgan. Ilmiy yo'nalishda "XIX asr qoraqalpoq madaniyati va Berdaq ijodi" mavzusida respublika ilmiy – amaliy anjumanini tashkil qilish, "Berdaq – qoraqalpoq adabiyotining asoschisi" mavzusida maqolalar to'plami va shoir ijodi bo'yicha bukletlar chop etish, adib asarlarining kataloglarini yaratish ham vazifa sifatida belgilangan. Berdaqning ijodi asosida institut muzeyida "Berdaq muzeyi"ni tashkil etish, shoir hayoti va ijodini o'rganish uchun professor o'qituvchi va talabalarni uning tug'ilib o'sgan

yurti, Qoraqalpog'istonga tashrifini tashkil etish rejalashtirilgan. Shuningdek ma'naviy – ma'rifiy targ'ibot yo'nalishida O'zbekiston Respublikasi Oliy majlis va O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda Adiblar bog'ida uchrashuv, institutlar, maktab, litseylarda targ'ibot tadbirlarini tashkil etish, ijodkor yoshlarning Berdaq asarlari bo'yicha esselar, she'rlar yozish, Teatr studiyasi a'zolari tomonidan "Oydus bobo" dostoni asosida sahna ko'rinishi tayyorlash va shoirning 193 yilligiga institut xududida barelyef o'rnatish ko'zda tutilgan.

Hozirgi kunda OAV va elektron platforma bo'yicha institut saytida sahifa ochib, unda Berdaqqa oid barcha ma'lumotlarni joylashtirib borilmoqda. Shoir asarlari asosida virtual kitoblarni yaratish, smart uy – muzeyini tashkil qilish bo'yicha va boshqa ko'pgina ishlar amalga oshirila boshlandi. Qoraqalpoq shoirining vatanparvarlik va xalqparvarlik ruhidagi badiiy xazinasidan bahramand bo'lish yosh avlod qalbida Muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev so'zlari bilan aytganda yoshlarga ayni paytda o'zligini ham unutmastikka, "Biz kimu, qanday ulug' zotlarning avlodimiz?" degan da'vat ularning qalbida doimo aks sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab turish uchun doimiy eslatma va xalq dardi bilan yashashga o'rgatuvchi dasturulamal bo'lib qoladi.

"Vatanparvarning qalbida vatan xaritasi ilgan bo'ladi" – deyishadi donolar. Vatanimni sevaman deb ko'kragiga urgan odamga vatanni qanday sevish kerak deb o'rgatmaymiz. Vatanni sevish uchun uning bir bo'lagi bo'lish kerak. Uning koriga yaray bilish, og'riqlaridan diling og'rishi, quvonchidan ming karra shodlanishing zarur. Xuddi Berdaq bobodek. Uning hayoti va ijodi bizga vatanparvarlikdan katta saboq beradi.

ИСТОРИЯ МОЕЙ ПОБЕДЫ



Каждый человек мечтает чего-то достичь в своей жизни. К успеху никто не равнодушен. Но мы стремимся к нему не только для удовлетворения собственного эго, но и для блага окружающих...

Несмотря на сложившуюся ситуацию в стране в связи с пандемией коронавируса глава нашего государства Ш.М. Мирзиёв уделяет немаловажное значение развитию молодёжи, в частности, в сфере образования: ежегодно проводимая олимпиада, направленная на выявление и поощрение талантливой молодёжи в этом году была проведена в режиме онлайн.

Идея участия в олимпиаде пришла ко мне совершенно случайно, точнее мне её подсказала мама. Будучи грамотной женщиной она узнала о предстоящей олимпиаде среди студентов высших учебных заведений Республики, и предложила мне участвовать в ней. Просмотрев перечень предметов я выбрала русский язык. И это не случайно: с русским языком я успела подружиться ещё в школе, участвуя на республиканских этапах олимпиады и занимая призовые места. Зарегистрировавшись, я начала ждать дня проведения олимпиады. И вот настал долгожданный день. Несмотря на долгие ожидания, волнений не было. Я приступила к решению тестовых заданий. Вопросы были довольно-таки интересные, но были и такие, над

которыми стоило бы серьёзно задуматься... За каждый правильный ответ причисляли 1 балл, и когда я решила последний пятидесятый вопрос, на экране высветилась надпись о том, на сколько вопросов я дала верные ответы. «49 баллов. Хм... Что-то не так... Такого быть не может, чтобы я ошиблась в одиннадцати вопросах», - подумала я, забыв о том, что исходное количество вопросов было не 60, а 50. Таким образом, лёгкое удивление сменилось внезапной радостью. Чем я решила поделиться со своими близкими. Казалось, они радовались моей победе даже больше меня. Когда-то я читала, что с каждым успехом ребёнка родители молодеют. И я в это искренне верю. В каждой нашей победе есть не только наша заслуга, но и заслуга нашей семьи, учителей. Огромную благодарность заслуживают мои родители, а также моя учительница Турдиева Кавсар Шералиевна, которая своим примером прививает в нас, в студентах любовь к своему делу.

Человечество издревле живёт со стремлением к лучшему: к лучшей жизни, овладении знаниями, достижениям высот. Но это стремление не всегда корыстное. Достигая поставленных целей я замечаю, как радуются за меня родные и я буду стараться в том же духе, чтобы вносить свой вклад в развитие нашей Родины и всегда видеть искры радости в глазах любимых мною людей.

*Фарангиз Набиева
студентка 306-группы лечебного факультета*

BOLAJONLAR – BOYLIGIMIZ



1 iyul – bolajonlarni himoya qilish kuni bizning Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti uchun ham muhim sana. Negaki institutimiz bolalar shifokorlarini tayyorlaydi. Bolalarimiz sogʻlom boʻlishi uchun esa yurtimizda koʻplab bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda. Yaqinda Toshkentdagi Bolalar milliy tibbiyot markazining yaratilishi ana shu bunyodkorlik ishlarining bir qismi boʻldi.

“U yerda yaratilgan sharoitlar tufayli shifoxona dunyo miqyosidagi toʻrtinchi darajali klinik shifoxona boʻlishi namoyon boʻlmoqda”, – dedi intervyusida institutimiz oʻquv ishlari prorektori K.N. Xaitov.

Institutimiz rektori, professor B.T.Daminov musohabasida ushbu markazning hatto arxitektura jihatdan oʻziga xosligini taʼkidlab, uning bolalar davolanishini hisobga olishgan holda dizaynerlarning oʻz ishlariga mehr va muhabbat bilan yondoshganliklarini taʼkidlaydi. Ushbu markaz koʻp tarmoqli, boʻlib bu yerda pediatriyaning barcha soha va boʻlimlari jamlangan. Eng asosiysi esa bu markazda boʻlib oʻtadigan operatsiyalarni dunyoning barcha chekkalarida koʻrish mumkin. Bu esa tibbiyot taʼlimimizda ham boʻlajak shifokorlar uchun katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birgalikda institutimiz jamoasi koʻplab bolajonlarni Xalqaro bolalar himoya qilish kuni munosabati bilan muborakbod etdi. Jumladan, 1 iyun kuni Toshkent pediatriya tibbiyot instituti jamoasi institut klinikasida davolanayotgan bemor bolalarni bayram bilan tabrikladi. Klinika hududida jazzi bemorlar uchun multfilmlar qahramonlari kostyumini kiygan tibbiyot xodimlari ularni tabriklab maxsus bayramona dastur orqali qutladilar, ularga sovgʻalar ulashdilar.

Bundan tashkari Yunusobod tumanida joylashgan «Bobodehqon» va «Uvaysiy» maxallalarida istikomati kilayotgan bolalarni xam tabriklab, ularga esdalik sovgʻalarni topshirdilar.

Xasanxoʻja Abidov

KARANTINDA KITOB BILAN HAMNAFAS

Koronavirus pandemiyasi tufayli mamlakatimizda joriy etilgan karantin sharoitida kitob yurtdoshlarimizning yaqin do'stiga, hamrohiga aylanishi kerak. Bugun kasallik yuqishi va tarqalishining oldini olish choralari doirasida ta'lim muassasalari, ko'plab korxonalar va tashkilotlarga ta'til berilgan. Barchadan imkon qadar uyda qolish, karantin tartiblariga amal qilish so'ralmoqda. Shu kunlarda aksariyat yurtdoshlarimiz, o'quvchi va talabalar shubhasiz, ko'p vaqtlarini kitob o'qish bilan o'tkazmoqda.

Markazimiz jamoasi mana shu sinovli kunlarda talabalarimizni zerikib qolmasliklari, ularga qulay bo'lishini ta'minlash uchun masofadan turib xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'ydi. Xususan, markazimiz tomonidan ijtimoiy tarmoqlarda: elektron kitoblar o'qish uchun https://t.me/arm_tpmi telegram kanali tashkil etildi.

Kanalga talabalarni qiziqishlaridan kelib chiqqan holda har kuni o'quv, ilmiy va badiiy adabiyotlar hamda audio, video kitoblar bilan tanishtirib borilmoqda. Bundan tashqari kanalda O'zbek va jahon adiblari, kutubxonalar, kitoblar to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar berib borilmoqda. Talabalar o'rtasida "Karantinda kitobxonlik" deb nomlangan videoroliklar tanlovi bo'lib o'tdi. Eng ko'p ovoz yig'gan ishtirokchiga karantindan so'ng esdalik sovg'asi topshiriladi. Prezidentimizning 5 ta tashabbusi ijrosi doirasida "Kitob va kitob mutolaasi"ni targ'ib qiluvchi hamda "Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash"ga qaratilgan videoroliklar joylashtirilib borilmoqda. 4- tashabbusga bag'ishlab «Kitob-eng yaxshi suhbatdosh» nomli kitob ko'rgazma videorolikni tayyorlab, kitobxonlar uchun taqdim etdim. Karantin davrida Elsevier kompaniyasi institutimizga «ClinicalKey», «Scopus», «Springer nature» va «EBSCO» bazalaridan foydalanish uchun bepul ma'lumotlar taqdim etdi. Men bu ma'lumotlar bazalaridan ro'yhatdan o'tib, bepul resurslarni yuklab olib, o'z kutubxonamiz bazasini to'ldirib bormoqdaman. Tashkil etilgan vebinarlarda faol ishtirok etib, sertifikat bilan taqdirlandim.



Bugungi sinovli kunlarda yurtdoshlarimizga shunday murojaat qilmoqchiman. Xalqimiz azaldan turli sinovlarni sabr-qanoat, iroda bilan yengib o'tgan. Ushbu sinovdan ham albatta, eson-omon o'tamiz. Faqat vahima qilmasdan, belgilangan tartiblarga qat'iy amal qilishimiz kerak. Shu o'rinda buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sinoning "Vahimaning o'zi yarim kasallikdir, xotirjamlik yarim sog'likdir, sabr esa shifoning boshlanishidir" degan so'zlarini eslamoq joiz. Demak, xotirjamlik, ahillik bilan ish tutsak, dunyoni tahlikaga solib turgan ofat ustidan g'olib bo'lamiz.

Qadrli yurtdoshlar, bugun uyda qolib, farzandlarimizni yonimizga olib o'zimiz yoqtirgan, bizga saboq beradigan kitoblarni o'qiylik. Zero kitob o'qish, ilm-ma'rifat insonni yuksaklikka yetaklaydi.

Dilnoza Rasuleva

Axborot-resurs markazi yetakchi mutaxassisi

BO'LGAN VOQEA

Talabalikda nimalar bo'lmaydi deysiz? Sizga shunday voqealardan birini aytib beray. Biz 1-bosqich tibbiyotchi talabalar bosh uquv binosidan har hafta klinik bazalarga borishimizga to'g'ri keladi. Guruhimizdagi men bilan ikki o'rtog'im bunday holda Yandeks chaqirardik. Pulini uchga bo'lganda avtobusdan ham qulay tushadi. Kunlardan bir kun Yandeks chaqirib, bekat tomon chopdik. Qarasak xuddi shu raqamli Nexiya turibdi. Shoshganimizdan haydovchiga salom berishni ham unutib, uch yigit Nexiyaning uchta eshigidan kirib tezda joylashdik. Bizga hayron qarab turgan haydovchiga: «Tezroq bo'ling! Aka!» dedik. U esa og'ziga talqon solganday qo'rqib bizga qarardi. Keyin bilsak, biz chaqirgan



Nexiyaning rangi boshqa ekan. Haydovchi esa bizni zo'ravonlar deb qo'rqib ketibdi. Gap nimadaligini bilgach, chiqib orqada turgan o'zimiz chaqirgan taksiga o'tirdik. Bundan keyin taksi kelganda esa e'tiborliroq bo'la boshladik.

Nodir Masharipov

1-Pediatriya fakulteti, 112 guruh talabasi

USTOZIM VA DO‘STIM EDI....



Tal'at Saidolimovich Agzamxodjayev bilan bir kurs farqi bilan o'qiganmiz, Avval O'rta Osiyo meditsina pediatriya instituti deb atalgan oliygohning ilk peshqadam bitiruvchilaridan edilar. Institut o'z yangi malakali kadrlariga muhtoj edi. O'sha vaqtlarda institutimiz Butunittifoq Sog'liqni Saqlash Vazirligiga qaragani uchun yosh kadrlarni poytaxt shaharlarining yetuk tibbiyot markazlarida tayyorlash

yaxshi yo'lga qo'yilgandi. Biz Moskva shahriga 1980 yillarda malaka oshirishga borganimda uchrashib qoldik va ular menga shu yerda ilmiy ish boshlashimga turki berdilar, ularning maslahati bilan tez orada Umumiy xirurgiya kafedrasiga sirtqi aspirant bo'lib ilmiy ishimi boshlab yubordim. Ilmiy ishimi bajarish jaroyonida o'zlarining ko'maklari bilan menga katta yordam berdilar. Shuning uchun ham Tal'at Saidaminovichni ham do'stim, ham Ustozim deb atayman.

Tal'at Saidaminovich avval nomzodlik, so'ngra doktorlik dissertatsiyasini himoya qilib, kelajagi porloq, iqtidorli yosh fan doktori bo'lib Moskva shahridan qaytdilar. Tal'at Saidolimovich nafaqat mohir amaliyotchi, balki O'zbekistonda bolalar anesteziologiyasi rivojiga katta hissa qo'shgan yuksak salohiyat

egasi edilar. Ular rahbarligida o'ndan ortiq fan nomzodlari va fan doktorlari yetishib chiqdi. Ularning o'quvchilari Respublikamizning turli viloyatlarning anesteziologiya bo'limlarida faoliyat ko'rsatib, Respublika tibbiyotini rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shmoqdalar.

Tal'at Saidolimovich mohir rahbar bo'lib institut ravnaqi yo'lida fidoyilik ko'rsatgan institutni. U institut jamoasi hurmatiga sazovor bo'lgan, hamkasblari va talabalar ehtiromiga sazovor inson bo'lgan. Keng qamrovli olim, talabchan inson, yaxshi maslahatgo'y va oqibatli do'st edilar. Qo'lidan kelgan jamoa ahliga, talabalarga yordamini ayamasa edilar. O'ta pokiza va sahovat pesha inson bo'lgan.

Tal'at Saidolimovich bilan qanday mavzuda suhbatlashmang, u kishida suhbatdoshini diqqat bilan tinglay olish qobiliyatini bor edi, zero bu xususiyat kamdan kam insonlarga nasib etgan. Shundan so'nggina mavzuga xos va mos fikrlarini bildirib, qalbingizni iliq his tuyg'ular bilan to'ldirib qo'yanligi sababli u kishidan yengilgina uzoqlashishni istamay qolardik.

Ular juda bir ahil oila boshlig'i, bir biridan aqlli go'zalxulqli farzandlar padaribuzrukvori edilar

Tal'at Saidolimovich umrini ilm yo'lga bag'ishlab, fidoyilik ko'rsatib, nafaqat hamkasabalari, balki Respublikamiz tibbiyot ahli o'rtasida ham samimiy ehtiromga ega bo'lgan mohir shifokor, chuqur fikrlovchi, uzoqni ko'ra biluvchi olim sifatida barchamiz qalbimizda chuqur iz qoldirdi.

A.Sh. Abdumajidov

Xirurgik kasalliklar kafedrasida dotsenti

MOHIR SHIFOKOR, OLIMA, TALABCHAN RAHBAR...EDI



Inson umri turli – tuman sinovlardan iborat ekan. Kimdir ana shu sinovlardan sharaf bilan o'ta oladi. Butun ongli hayotining qariyb 40 yildan ortiqrog'ini Respublikamiz tibbiyot ilmini rivojiga, tibbiyot amaliyotini

yuksak cho'qqilarga ko'tarishga, aholiga tibbiy yordam sifatini yaxshilashga harakat qilib kelgan olima, talabchan rahbar Gulira'no Mallabayevna, do'stimiz, safdoshimiz endi oramizda yo'q.

Gulira'no shifokor Mallaboy aka oilasida dunyoga keldi. Maktabda a'lo baholarga o'qidi, o'rtoqlari orasida chuqur bilimi, tartibli, intizomlilik bilan ajralib turardi. Avval talaba, so'ngra shifokor, ilmga chanqoqligi tufayli olingan

bilimlari bilan chegaralanmadi, ilm cho'qqilarini zabt etishga intildi.

Gulira'no Mallabayevna ustozlari kabi mohir shifokor bo'libgina qolmay, Moskvada tibbiyot fanlari nomzodi ilmiy unvoni uchun dissertatsiya himoya qildi. Poytaxtdan qaytgach, anesteziologiya va reanimatologiya kafedrasida dotsent lavozimida yosh avlodga saboq berdi. Shu bilan birga Gulira'no Mallabayevna butun ongli hayotini tibbiyot fani rivojiga bag'ishladi. Avvaliga institut bolalar klinikasi bosh shifokori davolash ishlari bo'yicha muovini, so'ngra bosh shifokor lavozimida faoliyat ko'rsatdi. Shu o'rinda Gulira'no Mallabayevnaning rahbarlik sohasidagi talanti, iqtidori yuzaga chiqdi. U boshqarayotgan bolalar klinikasi Respublika miqyosidagi tibbiyot markazlariga o'rnak bo'ladi-gan darajada yuksaldi, moddiy texnika bazasi zamonaviy tibbiyot anjomlari bilan ta'minlandi. Kadrlar masalasida chuqur ilmiy, yosh, xorijlarda malakasini oshirgan yangi zamonaviy qarashlar, amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan ilg'or fikrlovchi, ahil jamoa shakllantirildi.

Eng asosiysi, rektorimiz B.T. Daminov boshchiligida xalqaro aloqalar rivojlandi, xorijiy tajribaga ega shifokorlar taklif etilgan xorijiy mutaxassislar bilan birgalikda murakkab amaliyotlar o'tkazildiki, bu harakatlar klinikada joylashgan kafedra pedagoglari va bilim olayotgan talabalarga, yosh mutaxassislar, klinik ordintor va magistrilarimiz uchun ham xorijiy tajriba maktabi bo'lib xizmat qildi.

Gulira'no Mallabayevna insoniylik nuqtai nazaridan ziyoli olima, talabchan rahbar va bilimli shifokor edi. Ko'pchiligimizning farzand, nevaralarimizni sog'lig'ini but qilib hayotga qaytargan, minglab respublikamiz bolalarini davoladi, xalqimiz e'zoziga muyassar bo'ldi. Davlatimiz yuksak mukofotlari rahbar ko'ksini porlatdi, obro'siga obro' qo'shdi, lekin eng asosiy yuksak bahoni xalqimiz berdi:

A.Sh. Abdumajidov

Xirurgik kasalliklar kafedrasida dotsenti

PEDIATR
TOSHKENT PEDIATRIYA
TIBBIYOT INSTITUTI MEHNT
JAMOASI NASHRI
ОРГАН ТРУДОВОГО
КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО
ПЕДИАТРИЧЕСКОГО
МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТА

Tahrir kengashi:
D.A. Asadov, A.V. Alimov,
X.F. Haydarov, M. Ahmedova,
A.I. Iskandarov, K. Haitov,
D.T. Ashurova
A. Valiyev, A.A. Kudayberganov,
S.S. Gulyamov,
Nashr uchun mas'ul:
R. G'ochchiyeva

Bosh muharrir:
B.T. DAMINOV
Tahrir hay'ati:
(ishchi guruh)
E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva
(Bosh muharrir o'rinbosari),
A.M. Mannonov,
D.A. Ahmedova,
S.A. Begmonov, A. Nosirov,
Z. Karimova, A. Xudayberdiyev

Gazeta Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil 02-0010-son bilan ro'yxatga olingan.
Manzil: 700140, Toshkent-140, Bog'ishamol ko'chasi, 223
Cho'lpon nomidagi NMIU texnik va dasturiy vositalari bazasida chop etildi.
Manzil: Toshkent, 100129, Navoiy ko'chasi, 30. -buyurtma. Adadi 100 nusxa.
Gazeta institut hisobidan nashr etiladi va bepul tarqatiladi.